

O'ZBEKISTONDA IPO JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mallabayev Jobir Baxtiyarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchi

E-mail: jmallabaev@gmail.com

Tel: +998....., ORCID:

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda IPO jarayonini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari, ularning bosqichlari hamda milliy kapital bozorining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. IPO orqali kompaniyalarni ochiq bozorga chiqarish mexanizmlari, tartibga soluvchi institutsional muhit, investorlar ishonchini oshirish omillari hamda xususiylashtirish jarayonlarining IPO bozoriga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, respublika sharoitida IPO amaliyotini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda kapital bozorini yanada chuqurlashtirish va milliy iqtisodiyotga investitsiyalar oqimini kengaytirish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. IPO, kapital bozori, aksiyadorlik jamiyati, investitsiya muhit, xususiylashtirish, fond bozori, korporativ boshqaruv, emissiya, investorlar ishonchi, O'zbekiston iqtisodiyoti.

O'zbekistonda xalqchil IPO tizimini joriy etish bo'yicha dastlabki qadamlar 2019-yilda tashlangan edi. Bu jarayon O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari va davlatga tegishli korxonalarini xususiylashtirishga qaratilgan harakatlar bilan bog'liqdir. Davlat o'zida mavjud bo'lgan aksiyalarni xalq orasida sotish orqali ichki investitsiyalarni jalb qilish va bozorga yangi aksiyadorlarni qo'shishni maqsad qilmoqda. Xalqchil IPO nafaqat aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, balki ichki investitsiya muhiti rivojlanishi uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali davlat korxonalarining shaffofligi va samaradorligi oshadi, korxonalar iqtisodiy holatini yaxshilaydi. O'zbekistonda xalqchil IPO orqali iqtisodiy o'sish omillarini kengaytirish va mahalliy investitsiyalarni ko'paytirish nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari, xalqchil IPO aholining moliyaviy daromadlarini oshirish imkonini beradi va ular o'z mablag'larini mamlakat ichidagi kompaniyalarga sarmoya sifatida kiritishi mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda xalqchil IPO bozorini rivojlantirish uchun davlat tomonidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish va davlat ulushlarini sotish jarayonlari, ayniqsa, energetika, transport va moliyaviy xizmatlar sohasida boshlanmoqda. Masalan, "UzAuto Motors" kompaniyasi IPO bozoriga

chiqqan birinchi kompaniyalardan biri bo'lib, aholi orasida katta qiziqish uyg'otdi. Bu kabi dastlabki tajribalar bozorga yanada ko'proq kompaniyalar kirishini va aholining qimmatli qog'ozlarga bo'lgan qiziqishini oshirishini ko'rsatmoqda.

Xalqchil IPO fuqarolarga kompaniya aksiyalarini sotib olish orqali daromad olish imkoniyatini taqdim etadi. Shu bilan birga, aksiyadorlik o'ziga xos mas'uliyatni talab qiladi. Xalqchil IPO dasturi aholi moliyaviy savodxonligini oshirish, ularga aksiyadorlik imkoniyatlarini tushuntirish va ularni qimmatli qog'ozlar bozoriga jalb qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu dastur orqali oddiy fuqarolar nafaqat davlat korxonalarining aksiyadorlariga aylanishadi, balki iqtisodiy jarayonlarga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Xalqchil IPO fuqarolarga kompaniya aksiyalarini sotib olish orqali daromad olish imkoniyatini taqdim etadi. Shu bilan birga, aksiyadorlik o'ziga xos mas'uliyatni talab qiladi. Xalqchil IPO dasturi aholi moliyaviy savodxonligini oshirish, ularga aksiyadorlik imkoniyatlarini tushuntirish va ularni qimmatli qog'ozlar bozoriga jalb qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Bu dastur orqali oddiy fuqarolar nafaqat davlat korxonalarining aksiyadorlariga aylanishadi, balki iqtisodiy jarayonlarga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.

O'zbekistonda xalqchil IPO dasturi uzoq muddatli istiqbollarni ko'rsatmoqda. Bu jarayon mahalliy sarmoyalarni jalb qilish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va davlat korxonalarining xususiylashtirilish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Kelajakda ko'proq kompaniyalar IPO bozoriga chiqib, aholi uchun yangi investitsiya imkoniyatlari yaratishi kutilmoqda. Shuningdek, xalqchil IPO'ning rivojlanishi aholining moliyaviy faoliyatini oshirishda muhim qadam bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda 40 ta yirik korxona va banklardagi davlat ulushi "Xalqchil IPO" orqali sotildi. Jumladan, ilk bor Navoiy va Olmaliq kombinatlari, Metallurgiya kombinati, "O'ztelekom", "Sanoatqurilishbank" kabi yirik korxonalarning o'rtacha 2 foiz aksiyalari aholiga taklif etildi.

Hozirgi kunda "Xalqchil IPO" dasturi mamlakatda aholining barcha qatlamlari orasida keng mulkdorlar sinfini – aksiyadorlarni shakllantirish maqsadida o'tkazilmoqda. Bu uchun mazkur bosqichda "birlamchi/ikkilamchi ommaviy taklif etish" tamoyili asosida Olmaliq KMK, O'zbektelekom, O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi va O'ztemiryo'lkonteyner kabi yirik kompaniyalarni aksiyalari savdoga chiqarilmoqda. Ushbu jarayonni o'tkazishda quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- KPMG xalqaro konsalting kompaniyasi Strategik konsultant sifatida va jarayonni muvofiqlashtirish uchun jalb etilgan;
- "Mosaic Financial" va "Lightman PR" konsorsiumi keng qamrovli targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkillashtirish uchun PR-konsultant sifatida jalb etilgan;

• 6 ta investitsion vositachilari – “Toshkent” RFB a’zolari, salohiyatli anderrayterlar ro‘yxati (“g‘oliblar ro‘yxati”)ga kiritilib, ular bilan bosh kelishuvlar imzolangan.

Bunda, “Xalqchil IPO”ni muvaffaqiyatli tashkillashtirish uchun Strategik konsultant bilan kelishgan holda bir yoki bir nechta anderrayterlar “Xalqchil IPO” o‘tkaziladigan muayyan kompaniyalarga alohida shartnomalar orqali biriktiriladi.

Strategik konsultant bilan hamkorlikda aksiyalar muomalasi va “Xalqchil IPO”ni tashkillashtirish uchun zarur hujjatlar va ushbu kompaniyalarning moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari kompleks tahlil qilinib, uning natijalariga ko‘ra dastlab “O‘zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi” AJning aksiyalarini joylashtirish taklifi ishlab chiqildi.

“O‘zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi” AJning aksiyalarining ommaviy taklifini o‘tkazish jarayonida mahalliy investorlarning buyurtmalarini qabul qilish “Toshkent” RFB savdo maydonchasida amalda bo‘lgan jarayonga qo‘shimcha ravishda, “E-auksion” elektron savdo platformasi, shu jumladan uning mobil ilovasidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

“O‘zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi” AJ aksiyalarini “Xalq IPO”sini muvaffaqiyatli tashkillashtirishda anderrayterlar zarur mobil ilovalarga ega bo‘lgan tijorat banklari bilan holda hamkorlik qilish imkoniyatiga ega.

Shuni aytishimiz kerakki, “bitta aksiya – bitta lot” tamoyili asosidagi “Xalq IPO”sida ishtirok etish uchun aholining barcha qatlamlariga keng imkoniyat yaratish maqsadida, fuqarolar o‘rtasida ommalashishga ulgurgan va foydalanuvchilarga qulay bo‘lgan “E-auksion” platformasining joriy imkoniyatlaridan foydalaniladi hamda jarayonga qiziqish bildirgan.

“E-auksion” platformasi orqali 24/7 onlayn rejimida quyidagi ishlar amalga imkoniyatlari yaratilgan:

- talabgorlarni qimmatli qog‘ozlar bozori qonunchiligi talablariga asosan identifikatsiya qilish (ERI, One ID va Mobile-ID);
- professional brokerni tanlab, ular bilan shartnoma tuzish;
- depo hisob raqam (aksiya/obligatsiya uchun hisob raqam) ochish;
- mahalliy investorlar tomonidan aksiyalarni sotib olish bo‘yicha buyurtmalarni yuborish.

Aksiyalarni joylashtirish parametrlari (narx diapazoni), “O‘zRTXB” AJ aksiyalarining investitsiya salohiyati to‘g‘risidagi materiallar, shuningdek arizalarni topshirish tartibi va muddatlari haqidagi ma’lumotlar “KapDepo” konsorsiumi, Davaktiv agentligi, “O‘zRTXB” AJ rasmiy aloqa kanallari, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali qo‘shimcha tarzda yetkaziladi.

Bu orqali, jarayonning har bir bosqichi to'g'risida jamoatchilik xabardor qilinishi ta'minlanadi, jalb qilingan PR konsultantlar esa ommabop targ'ibot-tashviqot jarayonlarini va marketing kompaniyasini amalga oshiradi.

Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo'yicha davlat komissiyasi birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif etish sharti, aksiyalar turi va ularni savdoga chiqarish muddatini belgilashi hamda aksiyalarning hajmiga o'zgartirish kiritishi mumkin.

O'zbekistonda xalqchil IPO dasturi aholining iqtisodiy faolligini oshirish va davlat korxonalari aksiyalarini ommaga ochish orqali ichki investitsiyalarni jalb qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqchil IPO orqali aholining moliyaviy savodxonligi oshib, davlat korxonalarining shaffofligi va samaradorligi mustahkamlanadi. Dastlabki bosqichlarda IPO orqali sotuvga qo'yilgan kompaniyalar aholi tomonidan qiziqish bilan qarshilangan bo'lsa-da, tizimning samarali rivojlanishi uchun qator islohotlar talab qilinadi.

Aholi o'rtasida qimmatli qog'ozlar bozoriga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, ularning moliyaviy bilimlarini oshirish uchun davlat tomonidan qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish lozim. Jumladan, maktab va oliy ta'lim tizimlarida moliyaviy savodxonlikka oid kurslarni joriy etish va ommaviy axborot vositalari orqali xalqchil IPO jarayonlari haqida kengroq ma'lumot berish zarur. Bundan tashqari, xalqchil IPO muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, texnologik yangiliklar va onlayn platformalarni kengaytirish kerak.

O'zbekistonda xalqchil IPO dasturi aholining iqtisodiy faolligini oshirish va davlat korxonalari aksiyalarini ommaga ochish orqali ichki investitsiyalarni jalb qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqchil IPO orqali aholining moliyaviy savodxonligi oshib, davlat korxonalarining shaffofligi va samaradorligi mustahkamlanadi. Dastlabki bosqichlarda IPO orqali sotuvga qo'yilgan kompaniyalar aholi tomonidan qiziqish bilan qarshilangan bo'lsa-da, tizimning samarali rivojlanishi uchun qator islohotlar talab qilinadi.

Aholi o'rtasida qimmatli qog'ozlar bozoriga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, ularning moliyaviy bilimlarini oshirish uchun davlat tomonidan qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish lozim. Jumladan, maktab va oliy ta'lim tizimlarida moliyaviy savodxonlikka oid kurslarni joriy etish va ommaviy axborot vositalari orqali xalqchil IPO jarayonlari haqida kengroq ma'lumot berish zarur. Bundan tashqari, xalqchil IPO muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, texnologik yangiliklar va onlayn platformalarni kengaytirish kerak.

Xalqchil IPO'ning kelgusidagi istiqbollari nafaqat iqtisodiy o'sish va aholining daromadini oshirish, balki davlat korxonalari bilan aholi o'rtasidagi bog'lanishni mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega. Taklif sifatida, aholini qimmatli qog'ozlar bozoriga jalb qilish uchun maxsus investitsiya dasturlarini ishlab chiqish,

kichik investorlarga imtiyozli shart-sharoitlar yaratish va davlatning qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish mumkin. Bu kabi chora-tadbirlar orqali O'zbekistonda xalqchil IPO dasturi yanada keng miqyosda rivojlanib, iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qilishi kutiladi. Shu orqali O'zbekiston xalqchil IPO tizimining jahon tajribasiga asoslangan o'ziga xos modelini yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022
2. Питер Хауз: Народное IPO - не гарантия прибыли, а возможность. 2011. URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31058175&pos=4;-98#pos=4;-98.
3. Khujamurodov, A. (2020). Theoretical aspects of the development of stock market infrastructure. Архив научных исследований, 35.
4. Rahul Pradeep Pulikottil. Competitive and contagion effect of initial public offerings in India: An empirical study // Social Sciences & Humanities Open. Volume 8, Issue 1, 2023.
5. J.H. Min. Information spillover and demand shock effect of the ipos on the stock price of the competitors: Evidence from the Korean Stock Market // International Journal of Financial Research, 11 (5) (2020).
6. M. Spiegel, H. Tookes. Identifying an IPO's impact on rival firms April. NYU Stern School of Business (2016)
7. Khujamurodov, A. (2020). Development and formation of the securities market in Russia. Архив научных исследований, 35.